



UTT YORDAMIDA JIGARNING DIFFUZ O'ZGARISHLARINI VIZUAL ANIQLASHDA DOPPLEROGRAFIYANING O'RNI

Xomidov Abdulquddus

CAMU kafedrası assistenti, MTD klinika, UTT shifokori

E-mail: homidovabdulquddus@gmail.com

Zamonaviy tibbiy amaliyotda jigar kasalliklarini erta aniqlash, kasallikning bosqichlarini baholash va davolash natijalarini monitoring qilishda ultratovush tekshiruvi (UTT) muhim diagnostik vosita hisoblanadi. Ayniqsa, jigarning diffuz o'zgarishlarini (steatoz, fibroz, gepatoz, sirroz va boshqalar) aniqlashda Dopplerografik usulning ahamiyati katta.

Dopplerografiya jigardagi qon oqimining tezligi va yo'nalishini baholashga imkon berib, parenxima o'zgarishlari bilan bir qatorda, gemodinamik buzilishlar haqida ham ma'lumot beradi. Jigarning diffuz zararlanishida qon oqimi sekinlashishi, portal gipertenziya belgilari, kollateral tomirlarning vujudga kelishi Doppler signallari orqali aniqlanishi mumkin.

MTD klinikasida olib borilgan kuzatuvlar shuni ko'rsatdiki, diffuz gepatoz va boshlang'ich sirroz holatlarida B-modda UTT orqali parenxima parlaqroq va donachali bo'lsa-da, Doppler tekshiruvdagina portal venadagi oqim sekinlashuvi (PVS), splenik venada refluks, hamda hepatik arteriya indekslarining o'zgarishi orqali kasallikning og'irlik darajasiga aniqlik kiritish mumkin bo'ldi. 76 bemor orasida o'tkazilgan tekshiruvlarda Dopplerografiya yordamida aniqlangan hemodinamik o'zgarishlar UTT bilan aniqlangan morfologik belgilarni to'ldirib, erta bosqichda to'g'ri tashxis qo'yishga yordam berdi.

Xulosa qilib aytganda, jigarning diffuz kasalliklarini aniqlashda ultratovush tekshiruvi asosiy vosita bo'lib, Dopplerografiya uning funksional-tahliliy imkoniyatlarini sezilarli darajada kengaytiradi. Bu yondashuv shifokorga nafaqat morfologik, balki fiziologik o'zgarishlarni baholash imkonini beradi, bu esa



bemorga individual yondashuv va samarali terapiya rejasini tuzishda muhim ahamiyat kasb etadi.